

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР  
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ  
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН  
АКАДЕМИЯСИ  
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

**2023-11/4**

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна  
Издается с 2006 года**

**Хива-2023**

**Бош муҳаррир:**

*Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.*

**Бош муҳаррир ўринбосари:**

*Ҳасанов Шодлик Бекнўлатович, к.ф.н., к.и.х.*

**Таҳрир хайати:**

*Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.  
Абдуллаева Муборак Махмусовна, б.ф.д., проф.  
Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович,  
т.ф.д., проф.*

*Аззамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.*

*Аимбетов Нагмет Каллиевич, и.ф.д., акад.*

*Аметов Якуб Идрисович, д.б.н., проф.*

*Бабаджанов Хушнот, ф.ф.н., проф.*

*Бобожонова Сайёра Хушнудовна, б.ф.н., доц.*

*Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.*

*Буриев Хасан Чўтбаевич, б.ф.д., проф.*

*Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х.*

*Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.*

*Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.*

*Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.*

*Исмаилов Исҳақжон Отабаевич, ф.ф.н., доц.*

*Жуманиёзов Зоҳид Отабоевич, ф.ф.н., доц.*

*Жуманов Мурат Арепбаевич, д.б.н., проф.*

*Кадилова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.*

*Каримов Улғубек Темирбаевич, DSc*

*Курбанбаев Илҳом Жуманазарович, б.ф.д., проф.*

*Курбанова Саида Бекчановна, ф.ф.н., доц.*

*Қутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.*

*Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.*

*Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.*

*Махмудов Рауфжон Баходирович, ф.ф.д., к.и.х.*

*Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.*

*Мирзаева Гулнара Саидарифовна, б.ф.д.*

*Пазилов Абдуваеит, б.ф.д., проф.*

*Раззақова Сурайё Раззоқовна, к.ф.ф.д., доц.*

*Рахимов Раҳим Атажанович, т.ф.д., проф.*

*Рахимов Матназар Шомуротович, б.ф.д.,*

*проф.*

*Рахимова Гўзал Юлдашовна, ф.ф.ф.д., доц.*

*Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.*

*Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.*

*Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.*

*Сапарбаева Гуландам Машиаритовна, ф.ф.ф.д.*

*Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.*

*Сафаров Алишер Каримджанович, б.ф.д., доц.*

*Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.*

*Сотилов Гойитназар, қ/х.ф.д., проф.*

*Тожибаев Комилжон Шаробитдинович,*

*б.ф.д., академик*

*Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.*

*Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.*

*Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.*

*Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.*

*Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.*

*Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.*

*Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.*

*Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.*

*Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.*

*Ҳасанов Шодлик Бекнўлатович, к.ф.н., к.и.х.*

*Худайбергана Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д.*

*Худойберганаев Ойбек Икромович, PhD, к.и.х.*

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№11/4 (108), Хоразм Маъмун академияси, 2023 й. – 248 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

**МУҲРАҲА  
ФИЛОЛОГИЯ ФАҲЛАРИ**

<b>Abdullaeva R., Marufova Yu.A., Mukhammadjonova M.D.</b> Comparative Analysis of Phraseological Units with a Human Component in English, Russian, and Uzbek Languages: A Structural-semantic Perspective	5
<b>Ahmadjonova O.A.</b> Rahbar obrazining badiiy tasviri	8
<b>Akbaraliyeva X.Sh.</b> O'zbek va ingliz maqollarida tana a'zolarining ishlatilishi	11
<b>Alimov P.</b> Adabiyotda badiiy obraz va xarakter	14
<b>Aliyeva S.A.</b> Georionimlarning jahon tilshunosligida o'rganilishi va nazariy masalalari	17
<b>Aminova D.</b> Phenomenon of polysemy in english military vocabulary	19
<b>Aminova D.</b> Systematization of military terminology	20
<b>Bazarova X.E.</b> Asqar Mahkam ruboiylari	22
<b>Bobojonova X.K.</b> O'zbek tilidagi o'zlashmalarning ayrim xususiyatlari	26
<b>Boltaboyeva N.M.</b> Toponimik leksikografiya tilning leksik-semantik tizimining muhim yo'nalishlari sifatida	29
<b>Boltayeva G.Sh.</b> Muxammas janri genezisida xalq og'zaki ijodining o'mi	32
<b>Boltayeva G.Sh.</b> Tab'i xud muxammaslarda poetik shakl masalasi	34
<b>Daliev M.X.</b> Conceptual analysis of polysemy in terminology	37
<b>Daliev M.X.</b> Distinguishing features of terminologization in modern english	39
<b>Daliev M.X.</b> Polysemy in terminology	41
<b>Djalilova Z.B., Yuldashova N.O.</b> Badiiy adabiyotlarda realiyalar va ularning tarjima qilish usullari	43
<b>Egamnazarova Z.X.</b> Rieltorlik faoliyatiga oid terminlarning bir tilli lug'atlarda berilishi masalalari	47
<b>Jumaniyozov Sh.</b> Uzlüksiz ta'lim tizimi adabiyot darslarida badiiy asar tahlilining muhim jihati	50
<b>G'afforov A.</b> Yassaviy ijodida tasavvufiy istiloh (atama)larning qo'llanilishi	53
<b>Ganiyeva O.X.</b> AQSH hikoyachiligi negizlari	56
<b>Gavharoy Isroiljon qizi</b> Turizm terminlaridan muloqot diskursida foydalanishdagi muammo va yechimlar	59
<b>Hakimova Z.T.</b> Lexicographic Aspects of Sewing Terms: A Stitch in Language	62
<b>Ibragimova M.A.</b> Nutqiy aktlar nazariyasi va yozma nutq atamasiga doir	64
<b>Israilova M.N.</b> The role and significance of the science of latin and medical terminology in medicine	68
<b>Kilichev B.E.</b> Buxoro viloyatining gidrotoponimlari	70
<b>Kuchkarov T.O., Parmonova N.A.</b> "Treasure", "Xazina" tushunchalarining milliy-madaniy tipologik xususiyatlari	74
<b>Latipov A.A.</b> O'zbek tilida yakuniy faza semantikasi va uning ifodalanishi	77
<b>Madraximova R.Sh.</b> Ingliz tilida ma'danlarga aloqador onomastik birliklarning semantikasi va etimologiyasi	81
<b>Mamatqulova Sh.</b> O'zbek va ingliz tillarida fidoyilik konseptini ifodalovchi leksemalar	83
<b>Masharipov J.A.</b> Fan va texnika terminlarini standartlashtirishga qo'yiladigan talablar	86
<b>Muhammadiyev A.</b> Tarix va zamon haqiqatlarining she'riyatdagi talqini	88
<b>Mustafoeva S.Kh.</b> Semantic and structural grouping of riddles in english	95
<b>Nazarova S.</b> Ingliz va o'zbek tillarida politaksemalarning semantik turlari qiyosiy tahlili	98
<b>Omonov T.</b> Terminology and its effect on scientific and technical communication	100
<b>Omonov T.</b> The semantic features of insurance terms in english	103
<b>Pir-nazarova M.</b> Shoir ijodida tun timsoli	105
<b>Qahharova D.A.</b> Bobur lirikasida ko'ngil timsoli va badiiy san'atlar	109
<b>Qodirova Sh.B.</b> Nemis tilida tabiat hodisalarini ifodalovchi otlarning leksik-semantik xususiyatlari	114
<b>Radjabova G.</b> A corpus-based analysis of logical connectors in academic writing	116
<b>Raximova G.Yu.</b> Reduplikatsiya faol lingvistik jarayon sifatida	118
<b>Sabirova D.</b> Erkin A'zamning "Shovqin" romanida polifonik nutq ko'rinishi	121
<b>Sadullayev F.B.</b> Badiiy adabiyotda ruhiy tasvir va uning takomili	124
<b>Safoyeva S.N.</b> Badiiy tarjima kommunikativ faoliyat turi sifatida	126
<b>Sapayeva B.Q.</b> Birikma shaklidagi gemeronimlarning ko'rinishlari	128
<b>Satibaldiev E.</b> The interplay of language dominance, cultural nuances, and domain expertise in translation quality	132
<b>Satibaldieva N.</b> The dynamic evolution of language	134

<b>Sattarov F.</b> Ingliz tilidagi bolalar adabiyotining yangi bosqichga chiqishi	136
<b>Saydalieva A.E.</b> Irony in literature: an exploration of its functions and effects	139
<b>Saydirakhimova D.S.</b> Controversial issues in the research of similar adverbial words in the kyrgyz and uzbeki languages	142
<b>Shamsiddinova S.B.</b> Ilon kultining genezisi va uning “Gilgamish” eposida tutgan o’rni	147
<b>Shamuradova N.M.</b> Causality and independent word groups expressing causality	150
<b>Sharifov S.Z.</b> Xarakteri yoritishda portret va peyzajning roli	154
<b>Shodiyeva A.</b> Propozitsiyaning ilmiy talqini	157
<b>Sulaymonova N.A.</b> “Zarbulmasal” asarida gulxaniyning axloqiy qarashlari	159
<b>Suvanova R.A.</b> Erkin Vohidov she’riyatida qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalarining funksional-semantik xususiyatlari	162
<b>To‘xtaboeva M.</b> Botu she’riyatida sintaktik o‘ziga xosliklar va ularning badiiyati	165
<b>Turdimurodov S.E.</b> Izohli lug‘atlarda evfemik darajalanish xususida	168
<b>Xolmuxamedov B.</b> O‘zbek tilida yaratilgan chastotali lug‘atlar xususida	171
<b>Xushboqov Q.Sh.</b> “O‘zbek tilida “tug‘ilish” va “o‘lim” tushunchalarining lingvistik tadqiqi	174
<b>Yuldashev A.G., Mukhammadjonova M.D., Marufova Yu.A.</b> Categorization of English toponyms	177
<b>Yuldasheva D.N.</b> Antropotsentrik paradigmadagi sukut hodisasi	181
<b>Zakirova Kh.A.</b> Discourse analysis of urban planning terminology	185
<b>Абдувалиева Н.А.</b> Алишер Навоий ғазалларида қўлланган ўзлашма сўзларнинг таҳлили масаласи	187
<b>Абдурахманова Х.Р.</b> Научно-теоретическое изучение пословиц в лингвистике	191
<b>Алланазарова С.Х.</b> Лингвистик жиҳатдан бадий ономастикасида атоқли отлар хусусиятининг мобиллашуви	195
<b>Бендер Р.</b> Мастерство писателя в стилевой основе романа «Тихий Дон»	197
<b>Исмоилова М.И.</b> Ўзбек ва инглиз тилларида қарашлилиқ-тегишлилиқнинг семантик таркиби	200
<b>Кабилова С.А.</b> Эвфемизмларнинг оммавий ахборот воситаларида қўлланилиши	203
<b>Кенжаева П.</b> Замонавий турк хикоячилигида Шарк мумтоз адабиёти дурдоналарининг таъсири	206
<b>Қўлдошов Ў.Ў.</b> Конверсив бирликларнинг функционал-семантик хусусиятлари	210
<b>Махмудов Р.</b> Ўзбек тилидаги жуфт ва қисқартма сўз шаклидаги энг янги сўзлар	214
<b>Насирова М.К.</b> Смысловой аспект и появление понятия «концепт» в лингвокультурологии	218
<b>Насриева Г.</b> Назар Эшонкул асарларида драматик ва трагик образлар тизими	221
<b>Олимова Г.М.</b> “Тоҳир ва Зухра” достонидаги мумтоз жанрларда шеърини санъатларнинг ўрни	223
<b>Очилова Н.</b> Томас Майн Риднинг “Бошсиз чавандоз” асарида “от” образи таҳлили	227
<b>Панжиев Н.П.</b> Анализ структурно-статистических свойств согласных кластеров в узбекском языке	230
<b>Рахматова Д.П.</b> Достонларда эпик клише ва формулаларнинг ўрни	235
<b>Сейтназарова И.Э.</b> Тилеўберган Жумуратов асарларида бадий воситаларнинг услубий қўлланилиши	237
<b>Суярова А.И.</b> Роль журналистики Шарофа Рашидова в культурной жизни	242
<b>Умбетова Н.Ж.</b> Изображение национального характера в творчестве А.Н.Толстого	245

10. Hilton, G. (1933). *Lost cities*. The Macmillan Company.
11. Hornblower, S., & Spawforth, A. (2003). *The Oxford companion to classical civilization*. Oxford University Press.
12. Hough, C. (2017). *Linguistic landscapes and language education*. Routledge.
13. Jackson, K. (2010). *Language and history in early Britain: A chronological survey of the Brittonic languages, 1st to 12th c. A.D.* Edinburgh University Press.
14. Jones, M. (2002). *Bosworth 1485: Psychology of a battle*. Tempus.
15. Leeming, D. A. (2008). *The Oxford companion to world mythology*. Oxford University Press.
16. MacKillop, J. (2004). *A dictionary of Celtic mythology*. Oxford University Press.
17. Malory, T. (2005). *Le Morte d'Arthur: King Arthur and the legends of the Round Table*. Penguin.
18. Mills, A. D. (2011). *A dictionary of British place-names*. Oxford University Press.
19. More, T. (2001). *Utopia*. Dover Publications.
20. Newman, J. (2000). *Chaucer's Canterbury Road*. University of California Press.
21. Oxford English Dictionary (OED). (2019). *Oxford English Dictionary Online*. Oxford University Press.
22. Pearson, M. (2012). *Stonehenge: A new understanding: Solving the mysteries of the greatest stone age monument*. Simon and Schuster.
23. Reese, P. (2002). *The battle of Bannockburn*. Tempus.
24. Royle, T. (2016). *Culloden: Scotland's last battle and the Forging of the British Empire*. Little, Brown.
25. Rivet, A. L. F., & Smith, C. (1979). *The place-names of Roman Britain*. Batsford.
26. Smith, A. D. (2009). *The place-names of the West Riding of Yorkshire, Part 1: Lower and Upper Strafforth and Staincross Wapentakes*. Cambridge University Press.
27. The Holy Bible: King James Version. (n.d.). CreateSpace Independent Publishing Platform.
28. The New American Webster Handy College Dictionary. (n.d.). *The New American Webster Handy College Dictionary*. Signet Classics.
29. Upton, C. A. (2015). *Place-names of Worcestershire*. Andrews UK Limited.
30. Winstone, M. (1970). *Bristol in the Eighteenth Century*. Sutton Publishing Limited.

UO'K 801.6

**ANTROPOTSENTRIK PARADIGMADA SUKUT HODISASI***D.N.Yuldasheva, prof., p.f.d., Buxoro davlat universiteti, Buxoro*

*Annotatsiya. XXI asrning uchinchi o'n yilligiga kelib antroposentrik yo'nalish o'zbek tilshunosligi uchun nisbatan yangi yo'ndashuv sifatida lisoniy va nolisoniy birliklarning kognitiv xususiyatlari tadqiqiga qizg'in kirishdi. Milliy til va milliy tafakkur mushtarakligidan kelib chiqqan holda har bir lisoniy hodisaning kognitiv, ekspressiv, akkumulyativ jihatlarini tekshirish mazkur yo'nalishning asosiy vazifalaridan sanaladi. Zero, har bir tilni o'sha til egasining nutqi, nutq madaniyati bilan birga ijtimoiy muhit, milliy mentalitet, milliy etiket kabi omillar uyg'unligida tahlil etish ahamiyatli.*

*Mazkur maqolada diskursning tarkibiy qismi bo'lgan sukut hodisasiga antroposentrik paradigmada yondashish masalasi tahlilga tortilgan.*

*Kalit so'zlar: antroposentrik paradigma, nutqiy muloqot, ichki nutq, tashqi nutq, noverbal vositalar, nutqiy muloqotda sukut*

*Аннотация. К третьему десятилетию XXI века антропоцентрическое направление как относительно новое направление для узбекского языкознания стало активно изучать когнитивные свойства языковых и неязыковых единиц. Исходя из общности национального языка и национального мышления, рассмотрение когнитивных, экспрессивных, аккумулятивных сторон каждого языкового явления считается одной из основных задач этого направления. Ведь важно анализировать каждый язык в совокупности таких факторов, как социальная среда, национальный менталитет, национальный этикет, а также речь и культура носителя этого языка.*

*В данной статье анализируется вопрос подхода к феномену молчания, являющегося компонентом дискурса, в антропоцентрической парадигме.*

*Ключевые слова: антропоцентрическая парадигма, речевое общение, внутренняя речь, внешняя речь, невербальные средства, молчание в речевом общении*

*Abstract. By the third decade of the 21st century, the anthropocentric direction, as a relatively new direction for Uzbek linguistics, began to actively study the cognitive properties of linguistic and non-linguistic units. Based on the commonality of the national language and national thinking,*

*consideration of the cognitive, expressive, accumulative aspects of each linguistic phenomenon is considered one of the main tasks of this direction. After all, it is important to analyze each language in the aggregate of such factors as the social environment, national mentality, national etiquette, as well as the speech and culture of the speaker of this language.*

*This article analyzes the issue of approaching the phenomenon of silence, which is a component of discourse, in the anthropocentric paradigm.*

**Key words:** *anthropocentric paradigm, speech communication, inner speech, external speech, non-verbal means, silence in speech communication*

Antroposentrik tilshunoslik o'zbek lisonshunosligi uchun nisbatan yangi, jahon tilshunosligi uchun esa kamida ikki yarim asrlig tarixga ega bo'lgan yo'nalish hisoblanadi. Antropotsentrizm so'zi yunoncha *anthropos-odam* hamda lotincha *centrum-markaz* ma'nosini bildiruvchi so'zlar birikuvidan hosil bo'lgan [2]. M.V.Pimenova, O.N.Kondratevalarning "Концептуальное исследование" (Москва, 2014) kitobi ma'lumotlariga ko'ra, antropotsentrizm termini dastlab qadimgi yunon falsafasining "Inson koinot markazidir" degan g'oyani ilgari suruvchi qarashga nisbatan qo'llanilgan bo'lib, bu g'oya, ayniqsa, o'rta asrlarda Yevropada keng tarqalgan.

Hozirgi vaqtda tilshunoslikning yetakchi paradigmalaridan biri sifatida tan olingan antropotsentrizmning ildizlari V.fon Gumboldt hamda L.Vaysgerberning nazariy qarashlaridan oziqlandi [1]. Antropotsentrik paradigmaning shakllanishi til egasi – so'zlovchi shaxs omilini tadqiq etish bilan bog'liq. Demak, mazkur yo'nalishning tadqiq yo'nalishi mohiyatida "til–shaxs–nutq" trixotomiyasi turadi. Antropotsentrik paradigma tilni immanent tarzda, ya'ni o'z egasidan ayro holda tadqiq etishga antipozitivistik qarashlarning yuzaga kelishi natijasida shakllandi [3; 8; 14].

Jahon tilshunosligida matnmi antropotsentrik paradigma asosida o'rganish, asosan, lingvistik semantika, lingvokognitologiya, psixolingvistika, lingvokulturologiya, pragmatik tilshunoslikka oid tadqiqotlarda ko'zga tashlanadi. Substansial yo'nalishning asosiy samarasi tilning tizimli hodisa ekanligini isbotlashdan iborat bo'lgan bo'lsa, antropotsentrik paradigmadagi inson asosiy o'ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur deb qaraladi. Zero, rus adibi S.Dovlatov to'g'ri ta'kidlaganidek: "Inson shaxsiyatining 90 foizini til tashkil etadi". Shu bois "inson aqlini, insonning o'zidan, tildan va nutq yaratish hamda nutqni idrok qilish qobiliyatidan tashqarida tasavvur etib bo'lmaydi". (V.A.Maslova)

Yaqin yillargacha o'zbek tilshunoslarining diqqatini o'ziga jalb etmagan, yetarli o'rganilmagan nutqiy vositalarga antroposentrik yo'nalish e'tibor bera boshladi. Zero, tilning voqelanishi bo'lgan nutqqa e'tibor qaratish, nutqiy faoliyat jarayonini tadqiq obyekt sifatida tanlanishi zarurligi Praga lingvistik maktabi a'zolari tomonidan 1929-yilardayoq e'tirof etishganligi ma'lum [2]. Hqiqatan, istalgan til hech qachon vakuum holatida yashashi mumkin emas, odatda, til muayyan ijtimoiy sharoitda jamiyat kishilari orasida aloqa-aralashuv vositasiga aylangandagina asosiy mohiyatini namoyon etadi. Demak, tilning asl mohiyati uning nutqiy pragmatikasida to'la yuzaga chiqadi.

Til informatsiyasining ichki va tashqi tomoni mavjud, ichki tomoni til strukturasi uchun oid bo'lsa, tashqi tomoni nutq vaziyatiga tegishli ekanligini bilamiz. Aynan, til informatsiyasining tashqi tomoni diskursda verbal birliklar bilan bir qatorda naverbal vositalarni ham taqozo etadi. Zotan, diskurs ularsiz to'laqonli bo'lmaydi.

A.Nurmonov tilning kommunikativ vazifasidan kelib chiqqan holda fikr ifodalashda tilga yondosh bo'lgan, funksional jihatdan uni kompensatsiya qiluvchi paralingvistik vositalar haqida to'xtalib, aloqa- aralashuvda ahamiyatli bo'lgan ohang(ovoz)ning sifatii, miqdoriy xususiyatlari, shuningdek, imo-ishoralar tilshunoslikning o'rganish obyektii bo'lishi kerakligini ta'kidlab o'tadi [3]. Haqiqatan, har qanday tilning markazida inson omili turarkan, diskurs adresant va adresat o'rtasidagi munosabatlardan tarkib topar ekan, tilni uning doimiy foydalanuvchisi bo'lgan inson bilan birga o'rganilishi maqsadga muvofiq. Biz shu o'rinda aloqa-aralashuvda nihoyatda ahamiyatli bo'lgan sukut hodisasini ham ohang, imo-ishoralar bilan teng barobar o'rganilishi zarurligini qo'shimcha qilmoqchimiz.

Aslida, sukut ham, ohang ham muloqotning asosiy maqsadi bilan bevosita aloqador bo'lgan, o'rni kelganda, yangi bir axborot beradigan qismlardir. Odatda, inson fikrlarini to'playotgan, qilgan

yoki amalga oshirishi zarur bo'lgan ishlarini sarhisob qilayotganda, biror narsani ko'zdan kechirayotganda, umr yo'li, qilgan ishlari, o'zi yoki o'zgalarning ahvoli haqida o'ylayotgan paytda sukut qilib turadi. Mutaxassislarning fikricha, inson so'zlashni o'rganishiga ikki yil kifoya qilar ekan, biroq jim turishni o'rganishiga ba'zan bir umri ham yetmas ekan.

Muloqot jarayonida sukut insonga xos bo'lgan quyidagi ichki holatlarni yuzaga chiqaradi:

**o'ng'aysizlik** (Odatda, xijolatga soladigan; xijolatli; o'ng'aysiz holat; noqulay ahvol kabi ma'nolarni yuzaga chiqaradi): *Homidning zaruratsiz ayb tekshirishi majliska yotroq tuyilgan bo'lsa kerak bir-birlariga qarashib oldilar. Bu o'rinsiz tekshirish majlisni biroz sukutka yubordi-da, so'ngra Akram hoji savolida davom etti...* (A.Qodiriy. O'tkan kunlar) Keltirilgan misolda ziyoli, bama'ni kishilar davrasiga tasodifan qo'shilib qolgan, xotinboz laqabi bilan tanilgan Homidning o'ylamasdan aytgan gapi o'tirganlarni noqulay ahvolga soldi, bunday paytda "bema'ni suhbatdosh"ning gapiga shu asnoda javob qaytarish aqlli odamning ishi emas. Mazkur vaziyatda eng to'g'ri yo'l – sukut saqlash. Sukut qilish, bir tomondan, xijolatli vaziyatni ifodalasa, ikkinchi tomondan, o'ng'aysiz holatdan chiqib ketishga ko'maklashuvchi vosita vazifasini ham bajaradi;

**ikkilanish** (ba'zan kishining muayyan fikr, tushuncha yoki voqelik yuzasidan muqim bir qarorga kela olmasligi; turli xayollarda bo'lishi; shubhalanish holatida bo'lishi kabi ma'nolarni voqelantiradi):

*"Shu ish bahona bo'lib Asadbekni yo'qotish kerak! Bu shaharga xo'jayinlik qilish faqat sizga yarashadi..."*

*Bu gapdan keyin oraga sukut cho'kdi. Qilichning ko'z oldiga miyig'ida kulimsirab turgan Hosilboyvachcha keldi. Asadbekning qanotida yurgan odamdan bunday gapni eshitish Hosilboyvachcha uchun tushunarsiz, zavod boshqoni chin dildan aytyaptimi yo ig'vo boshlayaptimi – unga qorong'i edi.* (T.Malik. Shaytanat. 1-kitob)

Mazkur misolda suhbatdoshlardan biri – so'zlovchi aytgan gapining ta'sir kuchini kutib jim turgan bo'lsa, tinglovchi shubhalanish, ikkilanish holatida sukut saqlamoqda;

**tahqirlash** (nafratlanish, jirkanish; mensimaslik, haqoratlash; kamsituvchi, xo'rlovchi gap-so'z yoki harakat qilish kabi ma'nolarni voqelantiradi):

*Otabek bu cho'ltoq supurgini tanidi va uning istehzolarini payqadi. Ul bundan so'ngg'i ko'rguligini tamom ma'nosi bilan onglab, ma'nosiz bu savollarga javob berib o'turishdan sukutni xayrlik topdi. Go'yo o'zining bu sukuti bilan Musulmonqulga ma'nolik bir javobni ifoda qilar edi. Chindan ham Musulmonqul bu sukutdan tahqirlandi, tutumi ko'kka ko'tarilar ekan baqirdi:*

*–Nega javob bermaysan?! (A.Qodiriy. O'tkan kunlar)*

Asar personaji bo'lgan Musulmonqul qonxo'rliqi, bezbetligi, rahmsizligi bilan xalqqa tanilgan. Musulmonqul uning oldida hamma titrab, qo'l qovushtirib, yerni o'pib turishiga, uning bergan har bir savoliga darhol javob qaytarilishiga odatlangan. Shu o'rinda Otabekning sukut saqlashi uni chin ma'noda tahqirladi, asablarini chatnatib yubordi. Otabekning sukutida nafratlanish, jirkanish, qarshisida turgan nusxani mensimaslik ifodasi bor edi;

**xotiralarga berilish** (bunday holatlarda kishi o'tgan umrining yoki umri davomidagi biror voqea-hodisani eslab xotiralar girdobida bo'lish kabi ma'nolarni yuzaga chiqaradi):

*– Vatani yo'qing imoni yo'qtur... – Ismoilbey shunday deb boshini egdi, sukutga cho'mdi. Eti ustixoniga yopishib, uzun burni yanada beo'xshovlik kasb etgan, ko'zlari kirtayib qolgan qariya bu sukut chodiriga o'ralib, nimalarni o'yladi ekan? Bu gapdan yuragi hapriqqan Zelixon-chi? U nima uchun jim? U nimalarni o'ylayapti. Ismoilbeyning choy quyib o'tirgan o'g'li Ahadbey-chi? Ahadbey Zelixonning tengquri. Taqdirning zolimligi bo'lmasa biri tog'lar bag'rida, biri dengiz sohilida tug'ilib o'sib, shu yerda uchrasharmidi? Ular qishloqqa oldinma-keyin ko'chib kelishdi. Ismoilbey urushdan qaytgach, temiryo'lga ishga kirib, oilasini shu yerga ko'chirib keldi. Zelixonning otasi esa urushdan qaytmadi, u yetim holicha qishloqda rizqini terib yuraverdi.* (T.Malik. Shaytanat. 1-kitob. 160-b.)

Insonning umri davomidagi muayyan voqea-hodisalar unda yoqimli xotiralar qoldirishi ham yoki achchiq iztiroblar muhrlashi ham mumkinligi sir emas. Keltirilgan misolda suhbatdoshlarni sukutga cho'mdirgan holat – vatansizlik. Vatandan yiroqda yashashga majburlik iztirobi.

*ichki munojot* (Munojot, aslida, arabcha soʻz boʻlib, fikrimizcha, oʻzbek tiliga Mavaraunnahrda islom dini oʻrnatilganidan keyin oʻzlashgan va faollashgan. Munojot iltijo, maxfiy suhbat demakdir.) Baʼzan sukut insonning qalb tubidagi hech kimga ochiq-oydin ayta olmaydigan dard-hasratlari, iltijo, tavbalarini tangriga yoʻllash holatini ham ifodalaydi. Masalan,

*Ismoilbey boshini egib, sukutga berilgan chogʻlarida koʻpincha Ollohga munojot etadi: “Urushda jonimni omon saqla, deb yolvordim, oʻzingga shukr, saqlading. Bir kungina boʻlsa ham qishlogʻimda, oilam bagʻrida yashay, dengizning mavjlarini koʻray, dedim. Qishlogʻimga qaytarding, shukr. Ammo bir kungina sigʻdirding. Dengiz mavjlariga toʻydirmading. Gunohim koʻp boʻlsa, vatangado qilsang ming roziman. Ammo Ona xalqimni vatangado qilganingga aqlim lol. Nahot barchamiz baravar gunohkor boʻlsak...” Shu gaplar xayoliga keladi-yu, Xudoga taʼna qilgani uchun darrov tavba ham etadi.* (T.Malik. Shaytanat. 1-kitob. 161-b.)

Shu oʻrinda sukut verbal vositani toʻla kompensatsiya qilganda ham verbal vositaning izi – artikulyatsiya seziladi. Bunda sukutning maʼlum nutq vaziyati taqozosi bilan fikr ifodalash vazifasida qoʻllanilishi vaqtincha – fakultativ ekani koʻrinadi.

Shuningdek, *suhbatni davom ettirishni istamaslik, sukut bilan berilgan savolga sukut bilan javob qaytarish, ichki gʻazabni bosish, sarosimalik, aytilayotgan yoki aytilgan gap yolgʻonligini sezib turish*, baʼzan soʻzlovchi yoki tinglovchi diskurs jarayonida oʻzi istagan yoki istamagan holda sukut saqlab, qaysidir maʼnoda, muloqot madaniyati meyorlaridan chetga chiqmasligi yoki ularni buzishi ham mumkin.

Koʻrinadiki, inson nutqi nihoyatda murakkab, koʻp qirrali hodisa boʻlib, uning juda koʻp jihatlari yozuvda berish imkoniyati boʻlmaydi. Til informatsiyasining toʻla manzarasini namoyon qilish uchun esa nutqning barcha tomonlarini kompleks ravishda tekshirish zarurati seziladi. Zero, nutq jarayonida ishtirok etayotgan barcha vaziyat kompleksi muloqot fragmentining toʻliq va haqiqiy maʼnosini ochib bera oladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Vanderveken D. Meaning and Speech Acts.–Cambridge university press, 2009. – P. 137.
2. De Saussure, F. Course in General Linguistics. Columbia: University Press, 2011. – P. 260.
3. Нурмонов А. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент, 2012. – 301 б.
4. Юлдашева Д.Н. Нуткий мулоқотда сукутнинг ўрни// Образование и инновационные исследования. Том 1 № 1 (2020).
5. Юлдашева Д.Н. Сукут нуткий мулоқотнинг таркибий қисми сифатида//Ўз санъати халқаро журнали. – 2020. – Т. 3. – №. 3.
6. Yuldasheva D.N. Silence-is a nonverbal unit of speech communication// American Journal of Research”, 2020, 11-12 issue of the Journal.–Pag.87-95.
7. Юлдашева Д.Н. Сукут–нуткий алоқа компоненти// НамДУ илмий ахборотномаси – Научный вестник НамГУ, 2021. № 7. – 407-414-б.
8. Yuldasheva D.N. Basic non-verbal components of speech// Current research journal of philological sciences (2767-3758) 3 (01), 17-24.
9. Yuldasheva D.N., Chullieva G. T. The role of nonverbal means in speech meaning//International Engineering Journal For Research & Development, Vol.6, Issue 2 published May 16, 2021.–Pag.1956-1961.
10. Chullieva G.T. Intonation. Intonema, its structure. Functions of intonema. Middle European Scientific Bulletin. Volume 8, January 2021. ISSN 2694-9970. Pag. 141-148.
11. Chullieva G.T. Intonema and its Types. Middle European Scientific Bulletin. Volume 10, March 2021. ISSN 2694-9970. Pag. 91-95.
12. Yuldasheva D.N. Hozirgi oʻzbek adabiy tili (1-kitob).– Buxoro: Bukhara Hamd Print, 2023.–140 b.
13. Юлдашева Д.Н. Сукутда ички нуткнинг воқеланиши//“Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti” jurnali, 2022-yil. – 4-son.– 62-67-b.
14. Юлдашева Д.Н. Гибкий эвфемик маънонинг сукут орқали ифодаланиши// Хоразм Маʼmun Akademiyasi Axborotnomasi. –12/4-2022. –220-224-b.
15. Yuldasheva D.N., Yusupova A.Sh., Choʻllyeva G.T. О невербальных средствах речи// BuxDU Ilmiy axboroti, 2023.–4-son.–108-115-b.
16. Dilorom Nigmatovna Yuldasheva, Gulchehra Tospulatovna Chullieva. Expression Of Euphemistic Meaning Through Silence And Intonation// Published/ publié in Res Militaris (resmilitaris.net), vol.13, n°2, January Issue 2023.– 5596-5606-p.
17. Dilorom Nigmatovna Yuldasheva, Guli Ibragimovna Toirova, Dildora Yunus qizi Yusupova. Silence is a Pragma linguistic event taking medical Ephemeric significance. Scopus - Philosophical Readings XIII.4 (2021), pp. 2290-2297. 2290 Info@philosophicalreadings.org10.5281/zenodo.5651590



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАҢЛАР АКАДЕМИЯСИ  
МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ  
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ  
АХБОРОТНОМАСИ**

**№11/4 (108)  
2023 й., ноябрь**

Ўзбекча матн муҳаррири:  
Русча матн муҳаррири:  
Инглизча матн муҳаррири:  
Мусахҳиҳ:  
Техник муҳаррир:

Рўзметов Дилшод  
Ҳасанов Шодлик  
Мадаминов Руслан, Ламерс Жон  
Ўрозбоев Абдулла  
Шомуродов Журъат

“Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси” Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги  
Хоразм вилоят бошқармасида рўйхатдан ўтган. Гувоҳнома № 13-023

Теришга берилди: 06.11.2023  
Босишга рухсат этилди: 15.11.2023.  
Қоғоз бичими: 60x84 1/8. Адади 70.  
Ҳажми 15,5 б.т. Буюртма: № 12-Т

Хоразм Маъмун академияси ноширлик бўлими  
220900, Хива, Марказ-1  
Тел/факс: (0 362) 226-20-28  
E-mail: [mamun-axborotnoma@academy.uz](mailto:mamun-axborotnoma@academy.uz)  
[xma\\_axborotnomasi@mail.ru](mailto:xma_axborotnomasi@mail.ru)



**(+998) 97-458-28-18**